

BEGONA O‘TLARNING KLASSIFIKATSIYASI

Sulliyeva Suluv Xurramovna

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada begona o‘tlarning biologik va zararli xususiyatlariga asoslangan klassifikatsiyasi yoritilgan. A.V.Fisyunovning zamonaviy tasnifi ularga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqishda qulaylik yaratadi.

Kalit so‘zlar: Begona o‘tlar, klassifikatsiya, biologiya, vegetatsiya, parazitlar, yarim parazitlar, kurash usullari.

Аннотация. В статье освещается классификация сорных растений на основе их биологических и вредоносных свойств. Современная классификация А.В. Фисюнова облегчает разработку эффективных методов борьбы с сорняками.

Ключевые слова: сорняки, классификация, биология, вегетация, паразиты, полупаразиты, методы борьбы.

CLASSIFICATION OF WEEDS

Sulliyeva Suluv Xurramovna

Termiz State University, Termiz, Uzbekistan

Annotation: The article discusses the classification of weeds based on their biological and harmful properties. A.V. Fisyunov's modern classification facilitates the development of effective weed control methods.

Keywords: weeds, classification, biology, vegetation, parasites, semi-parasites, control methods.

Begona o‘tlarning klassifikatsiyasi

Begona o‘tlar naqadar ko‘p bo‘lishi bilan birga har xil biologik xususiyatlarga ega bo‘lishi sababli ularga qarshi kurashish usullari ham turlicha bo‘ladi. Shu sababli ham, begona o‘tlar bir yillik, ikki yillik, ko‘p yillik bo‘lishi bilan birga erta bahorgi, bahorgi, kech bahorgi, yozgi, kuzgi, qishgi va boshqa

davrlarda yashovchilarga bo‘linadi. Shu bilan birga parazit bo‘lmagan, yarim parazit, parazit va boshqalarga bo‘linadi. Shu sababli ham begona o‘tlarni maxsus klassifikatsiyasi bo‘yicha o‘rganib, ularga qarshi kurashish rejasini oldindan tuzilishi kerak.

Ishimizning asosiy maqsadi kuzgi bug‘doy dalasida bahorning birinchi yarmida rivojlanib, bug‘doyga zarar keltiruvchi ikki pallali va boshoqli begona o‘tlarga qarshi kurashishdan iborat bo‘lganligi sababli begona o‘tlar klassifikatsiyasi bo‘yicha to‘liq ma‘lumot bermasakda begona o‘tlar klassifikatsiyasi bo‘yicha umumiy holda qisqacha ma‘lumotlar keltiramiz. Begona o‘tlarning klassifikatsiyasi bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlar M.G.Chijevskiy, A.N.Kiselyov, S. A. Vorobyev, V.YE.Yegorov, P.M.Baleyev va A.N.Yamshikovlar [1.1.ye.1] tomonidan darsliklarga kiritilib, tizimlashtirilgan bo‘lib, unda kam yillik va ko‘p yillik guruhlarga bo‘lingan.

S.N.Rijov va I.F.Sukachlar [1.1.a.7] begona o‘tlarni bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik hamda shu guruhlarni ham mayda guruhlarga bo‘lgan.

A.M.Likov va boshqalar [1.1.d.1] begona o‘tlarni zarar keltiruvchilik xususiyatlari bo‘yicha parazit bo‘lmagan begona o‘tlar, parazit va yarim parazit guruhlarga bo‘lgan. Ushbu olimlar begona o‘tlarning vegetatsiya davri bo‘yicha kam yillik va ko‘p yillik ikkita katta guruhlarga bo‘lib, xususiyatlari bo‘yicha ham kichik guruhlarga bo‘lgan. Kam yillik begona o‘tlar ikki yillikdan ko‘p bo‘lmagan guruhlardan iborat bo‘lib, ularga efemerlar, erta bahorgi, kech bahorgi, qishlovchi, kuzgi va ikki yilliklar kiradi. Ko‘p yillik begona o‘tlar esa vegetativ usulda ko‘paymaydigan, lekin kuchsiz ko‘payadigan va kuchli ko‘payadigan guruhlarga bo‘linadi. Begona o‘tlarning ushbu klassifikatsiyasi amaliy ishlarda muhim ahamiyat kasb etib, ularga qarshi kurashishning samarali usullarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Begona o‘tlarning eng zamonaviy va qulay klassifikatsiyasi A.V.Fisyunov [1.1.a.26] tomonidan ishlab chiqilgan. A.V.Fisyunov begona o‘tlarni parazit bo‘lmagan, parazit va yarim parazit kabi ikkita katta guruhga hamda 5 ta

podtiplarga (bir yillik, ikki yillik, ko'p yillik, parazitlar va yarim parazitlar) bo'ladi. A.V.Fisyunov klassifikatsiyasi asosan begona o'tlarning biologik xususiyatlari bo'yicha tuzilgan. Ushbu klassifikatsiya bo'yicha birinchi biologik guruhlariga bir pallali va ikki pallali, bahorgi, kuzgi, qishlovchi begona o'tlar kiradi. Ikkinchi biologik guruhlariga ikki pallalilardan fakultativ va haqiqiy begona o'tlar kiradi. Begona o'tlarning eng katta biologik guruhlariga bir pallali va ikki pallali begona o'tlar kirib, ularga tuganakli, ildiz poyali, ildizidan ko'payuvchi, ildizi sochiqli, piyozli va o'rmalovchi begona o'tlar kiradi. To'rtinchi biologik guruh begona o'tlariga faqat ikki pallali begona o'tlar kirib, ular ildizli va poyali begona o'tlardan iborat. Beshinchi biologik guruh begona o'tlar ikki pallali begona o'tlar bo'lib, ildizli va poyali begona o'tlardan iborat.

Demak, begona o'tlarning klassifikatsiyalari orasida A.V.Fisyunov tomonidan taklif etilgan klassifikatsiya amaliyotda begona o'tlarga qarshi kurashishda ko'proq aniqlikka ega bo'lib, undan foydalanish juda qulay.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Балантаева М.Р. Сорно-полевая растительность и химический метод борьбы с нею на равнинно-холмистой богаре Узбекистана. Автор.дисс.канд. с/х наук. Ташкент, 1974.-22 с.

2. Ибрагимов З.А. Борьба с сорными растениями при технологии возделывания двух урожаев зерна в год. Автор.дисс.на соис.уч.ст.канд. с/х. наук. Самарканд СамСХИ, 1999.-21 с.

3. Суллиева С. Х., Бобоева Н. Т., Зокиров К. Г. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЗЕМЛИ ВМЕСТЕ В ТЕКУЩЕМ ЛЕЧЕНИИ //Мировая наука. – 2019. – №. 6 (27). – С. 450-452.

4. Rizayev Sh. X. Tuproqqa ishlov berish chuqurligi va gerbitsid meyorlarini begona o'tlar, kuzgi bug'doy hosili va uning sifatiga ta'siri, q.x.f.n. ilmiy darajasiga talabgorlik dissertatsiya avtoreferati. O'zPITI. Toshkent, 2006.-22 b.

5. Sullieva S., Zokirov K. Biology of weeds //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 2. – С. 120-124.

6. Фозилов Ш. М. Периодичность роста и формирования урожая у внутривидовых форм пшеницы //Интернаука. – 2019. – №. 45-1. – С. 18-20.
7. Суллиева С. Х., Зокиров К. Г. Вредные свойства и классификация сорняков //Экономика и социум. – 2020. – №. 9 (76). – С. 319-322.
8. Xurramovna S. S. et al. Use Atlantis Herbicide for Avena Fatua in the Middle of a Wheat Field //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 45-47.
9. Суллиева С. Х., Зокиров К. Г. Структура урожайности озимой пшеницы при применении гербицидов против сорняков //Экономика и социум. – 2020. – №. 9 (76). – С. 323-326.
10. Sullieva S. X., G'Zokirov Q. The Structure of the Yield of Winter Wheat When Using Herbicides Against Weeds //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 37-40.
11. Суллиева С. Х., Бобоева Н. Т., Зокиров К. Г. ВИДЫ И СОРТА ХРИЗАНТЕМ //Экономика и социум. – 2019. – №. 10 (65). – С. 315-317.